

Bizning yutuqlarimiz  
**2021**

 **KAPITALBANK**



# Filiallar tarmog'i



16

Filiallar

30

Mini banklar va  
Bank xizmatlari  
ofislari

3

Bank markazlari  
xizmatlar  
(Markaziy bank)



# «Kapitalbank» ATB bozordagi pozitsiyasi

2022 yil 1-yanvar holati bo'yicha

Xususiy tijorat banklari o'rtasida



AKTIVLAR  
**\$ 1 442,7 mln**



MUDDATLI  
CHAKANA DEPOZITLAR  
**\$ 227,6 mln**



XORIJIY VALYUTADIGI MUDDATLI  
CHAKANA DEPOZITLAR  
**\$ 155,7 mln**



O'Z-O'ZIGA XIZMAT KO'RSATISH  
BANKOMATLARI VA TERMINALLARI  
**3 273 dona**



KREDIT PORTFELI  
**\$ 727,3 mln**



KAPITAL  
**\$ 137,4 mln**




BANK KARTALARI  
**569 589 dona**



# Yutuqlar va mukofotlar

**KAPITALBANK**



## Kredit reytingini olish

«Ahbor-Reyting» «Barqaror» prognozi bilan milliy shakala bo'yicha "uzA+" darajasida kredit reytingini berdi. Reyting agentligi bankning jami aktivlari ko'payganligini, kredit portfeli oshganligini, pandemiya davrida mijozlarni qo'llab-quvvatlash ta'minlanganligini va jismoniy va yuridik shaxslar uchun maxsus kredit mahsulotlari ishga tushirilganligini qayd etdi.



## "Oltin sertifikat egasi" unvonining himoyasi

DIN EN ISO 9001:2015 xalqaro standarti bo'yicha

«TOV International Certification» kompaniyasi biznes-jarayonlarning natijalarini barcha o'zgarishlar va bankni raqamlashtirish darajasini hisobga olgan holda baholab uning xalqaro standartlarga muvofiqligini tasdiqladi.



## Banklarning aktivlari indeksida birinchi o'rin

Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazining versiyasi bo'yicha 2020-yil iyuldan har yil choragida. ITIM moliyaviy vositachilik, moliyaviy foydalanish, aktivlarning sifati va likvidligi bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarni hisobga oladi.



## Servis sifati bo'yicha eng yaxshi banklardan biri

O'zR Markaziy bankining aholi o'rtasida o'tkazgan so'rovi natijalari bo'yicha "Kapitalbank" xizmatlar sifati bo'yicha banklar top-5 taligiga kirdi. Respondentlar o'rtasida so'rov to'rtta mezon bo'yicha o'tkazildi: ishonchlilik, kompetensiya, hozirjavoblik va mijozlarni qo'llab-quvvatlash.



**Marketing Forum '21**

**MAKON**





## Ijtimoiy loyihalar

### 2021-yilning 20-26-mart kunlari Butunjahon pul haftaligi (Global Money Week) ga bag'ishlangan tanlov o'tkazildi

Biz bolalarga o'yin o'ynashni taklif qildik: agar ularda kapital yoki "Million dollarlik g'oya" bo'lganida ular o'z biznesini qanday tashkil etar edilar?

Fyerma, muzqaymoq fabrikasi, tamaddixona yoki dizaynerlik byurosi – qanday g'oya bo'lishi muhim emas. Biznyes g'oya istalgan formatda: rasm, insho, video, slayd-shou formatidagi taqdimot shaklida taqdim etildi. Tanlovda 7 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan taxminan 100 nafar bola ishtirok etdi. Hakamlar tanlov yakunlari bo'yicha uch nafar g'olibni aniqladi, ularni qimmatbaho yutuqlar: smartfon, planshyet, smart-soat bilan mukofotladi..

**Tanlov barcha ijtimoiy tarmoqlarda bankning rasmiy sahifalarida faol yoritildi.**





# GLOBAL MONEY WEEK DOIRASIDA AHOLINING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH LOYIHASI

**KAPITALBANK**

Departament Markaziy bankning Butunjahon pul haftaligi doirasidagi moliyaviy savodxonlikni oshirish loyihasida faol ishtirok etdi.

## MOLIYAVIY SAVODXONLIK OYLIGI MOBAYNIDA QUIYIDAGILAR O'TKAZILDI:

Ijtimoiy tarmoqlarda bolalar va o'smirlar o'rtasida "Mening ishim" tanlovi;  
Qoraqalpog'istonning ta'lim muassasalari: Nukusdagi 5 ta o'rta ta'lim maktabi va Xo'jaylidagi 1 ta bolalar uyi o'rtasida tanlov.

Tanlovlarning g'oliblari qimmatbaho yutuqlar bilan taqdirlandi. Tanlovlar haqidagi axborot bankning rasmiy saytida va ijtimoiy tarmoqlarda faol e'lon qilindi.

Markaziy bank tadbirlarning yakunlari bo'yicha "Kapitalbank"ni moliyaviy savodxonlik sohasida eng faol bank deb qayd etdi.





# Ijtimoiy loyihalar

## FUTBOL ChELLENJI #KAPITALFINT

**EURO 2020 ga bag'ishlangan chellenj,  
2021-yil 22-iyundan 11-iyulgacha bo'lib o'tdi.**

Chellenjning mohiyati - ijodiy video suratga olish va Instagram ga qo'yish, bu videoda ishtirokchi o'zining to'p bilan ishlash malakasini namoyish etadi. So'ngra «Kapitalbank» deb qayd etishi va estafetani boshqa odamlarga berishi kerak bo'ladi.

Chellenjda 300 ga yaqin ishtirokchi qatnashdi. Hakamlar chellenj yakunlari bo'yicha bank xodimlari orasidan 10 nafar g'olibni aniqladi. Yana 8 ishtirokchi rag'batlantiruvchi yutuqlarga ega bo'ldi.

Chellenjni o'tkazish vaqtida "Kapitalbank"ning Instagram dagi rasmiy sahifasida faollik, qamrab olish, ko'rishlar sezilarli darajada oshdi, shuningdek obunachilar soni 200 kishiga ko'paydi





# Ijtimoiy loyiha - «Urushning kichik guvohlari» / «Urush bolalari» kitobini nashrdan chiqarish

«Kapitalbank» «Podrobno.uz» yangiliklar agentligi bilan hamkorlikda «Urushning kichik guvohlari» kitobini nashrdan chiqarish tashabbuschisi bo'ldi.

Departament kitobning taqdimotini o'tkazish maqsadida o'zi mustaqil matbuot konferensiyasi tashkil etdi: press-vollar (reklama bannerlari), kichik reklama lavhalari, bayroqchalar, flagshtoklar, spikerlarning tablichkalari ishlab chiqildi va buyurtma qilindi. Pryess-ryeliz va post-ryeliz tayyorlandi.

Yuqori martabali mehmonlar: O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o'rinbosari Aziz Abduhakimov va Rossiya Federatsiyasining O'zbekistondagi Elchisi Olyeg Malginov, shuningdek jurnalistlar va blogyerlar taklif etildi.

Tadbir yakunlari bo'yicha bloglar, internyet-nashrlar, gazyeta, radio va tyelyekanallarda 20 ga yaqin haq to'lanmagan materiallar chiqdi. Bundan tashqari, Ma'muriy departament bilan birgalikda kitob qahramonlari uchun 40 ta oziq-ovqat to'plami sotib olindi va tarqatildi. Ushbu aksiya sherigimiz «Podrobno uz» saytining sahifalarida yoritildi.

«Urushning kichik guvohlari» kitobi o'zbek tiliga tarjima qilindi va «Urush bolalari» degan nom oldi. Dyepartamyent tomonidan rasmiy tadbir tashkil etildi, bu tadbirda «Kapitalbank» ATB Boshqaruvi raisi Alisher Mirzayev Xalq ta'limi vaziri Sherzod Shermatovga respublikaning maktab kutubxonalariga bepul tarqatish uchun kitobning 3000 nusxasiga syertifikat topshirdi.

«URUSH BOLALARI»

3 300  
NUSXA

**KAPITALBANK**






## Marinika Babanazarovaning «Igor Saviskiy: rassom, to'plovchi, muzey asoschisi» kitobini nashr etish hamkori.

O'zbekistonning turistik salohiyatini rivojlantirish va nemis tilida so'zlashuvchi ommaning diqqat-e'tiborini Nukusdagi san'at muzeyiga jalb etish doirasida «Kapitalbank» Marinika Babanazarovaning kitobini nashr etishni moliyaviy qo'llab-quvvatladi.

“Igor Saviskiy: rassom, to'plovchi, muzey asoschisi” - bu sovet va rus avangard rassomlarining kolleksiyasini to'plagan va Nukusda san'at muzeyiga asos solgan insonning hayoti va ijodi to'g'risidagi kitob.

Allaqachon rus, ingliz, fransuz, italyan va endi nemis tillarida nashr etilgan kitobning muallifi - anchagina qiziqarli va ijodkor shaxs. Marinika Babanazarova - san'atshunos, Igor Vitalyevich Saviskiyning davomchisi, Saviskiy nomidagi Qoraqalpog'iston Davlat san'at muzeyi faxriy direktori, nafaqat afsonaviy asoschining tarjimai holini qog'ozda aks ettirdi, balki uning mehnatini xalqaro tan olish darajasiga olib chiqdi.





## «Uzbekistan Travel» jurnali arabcha versiyasi nashrining hamkori.

«Milliy RR-markaz» DUK «Kapitalbank» Raisi Alisher Mirzayevga «Uzbekistan travel» xalqaro turistik jurnalini tayyorlash doirasidagi samarali hamkorligi uchun minnatdorchilik izhor qildi.

Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi huzuridagi «Milliy RR-markaz» komandasi tomonidan yaratilgan «Uzbekistan travel» jurnali birinchi marta o'tgan yilning noyabr oyida rasman taqdim etilgan.

Jurnalning 2021 yil boshida umumiy tiraji ikki ming nusxada nashr etilgan arabcha versiyasi o'zida zamonaviylik va boy tarix, eng yangi texnologiyalar va hozirgi zamon va o'tmishni birlashtirgan madaniyat, kelajakdagi oliy maqsadlar va buyuk merosni mujassamlashtirgan yangi O'zbekistonni ko'rsatib beradi.

«Kapitalbank» mamlakat hukumatining O'zbekiston yutuqlari va boyliklarini xalqaro maydonda taqdim etishga bo'lgan intilishini qo'llab-quvvatlab «Uzbekistan travel» jurnalining arab tilidagi versiyasini chiqarishda hamkor sifatda chiqdi.






# Yangi xizmat nuqtalarini ochish va mavjudlarining ichki ko'inishini yangidan tashkil etish

Bankning quyidagi bo'linmalari uchun xonalarni joylashtirish, mebel bilan jihozlash rejaları va reklama tashuvchilar ishlab chiqildi:

- Mirzo Ulug'byek filiali
- Buxoro filiali
- Qarshi BXM
- Chilonzor metrosi mini banki
- Tyermiz mini banki
- Buvayda mini banki
- Quva mini banki
- Askiya mini banki
- Axmad Donish mini banki



Mirzo Ulug'byek filiali



Buxoro filiali



Qarshi BXM



Минибанк Ахмад Доғиш



Askiya mini banki



Buvayda mini banki



Chilonzor metrosi mini banki



## FARHOD MAXMUDOV BILAN KAMPANIYANI ISHGA TUSHIRISH

Akter Farhod Mahmudovning nomzodi “Kapitalbank” brendi ambassadori sifatida tasdiqlanganidan so‘ng Departament fotosessiya o‘tkazdi va uning ishtirokida videorolik suratga oldi.

Iyulda “sariq” kampaniya o‘rniga Farhod Maxmudovning qiyofasi bilan yangi kampaniya ishga tushirildi. Akterning surati ilgari yaratilgan reklama imijlari konsepsiyasiga har bitta alohida mahsulot - Omonatlar, Pul o‘tkazmalari, Ipotyeka, Kichik biznes uchun kreditlar – ostiga qo‘yildi.

Shuningdek professional promotion-ctydiyasi yangi bank mahsuloti – VIZA kredit kartasini reklama qilish uchun Farhod Mahmudov ishtirokida videorolik suratga oldi. Mahsulot ishga tushirishga tayyorlanmoqda.





## **ALOQA UCHUN AXBOROT**



100047, O'zbekiston Respublikasi,  
Toshkent sh., Sayilgoh, ko'chasi, 7.

---

**(+998 78) 148-40-05; (+998 71) 200-15-15**  
**(+998 71) 232-26-07**

[www.kapitalbank.uz](http://www.kapitalbank.uz) [info@kapitalbank.uz](mailto:info@kapitalbank.uz)